



UDK 377.3:331.5

## MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHUVCHAN KADRLAR TAYYORLASHDA ISH BERUVCHILAR BILAN HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA DUAL TA'LIM TIZIMINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Ustababayeva Xafiza Artikovna

*Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mehnat bozori talablariga moslashuvchan kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dual ta'lim tizimining nazariy asoslari, uning afzalliklari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekistonda ushbu tizimni kengaytirish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ish beruvchilar bilan samarali hamkorlik va dual ta'lim mexanizmlarining rivojlanishi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, bandlik darajasini oshirish va iqtisodiyotning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** mehnat bozori, dual ta'lim, ish beruvchi, kasbiy ta'lim, bandlik, kompetensiya, professional ta'lim, kadrlar tayyorlash.

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение сотрудничества между образовательными учреждениями и работодателями в подготовке кадров, адаптированных к требованиям рынка труда. Освещены теоретические основы дуального образования, его преимущества, зарубежный опыт и перспективы расширения данной системы в Узбекистане. Сделан вывод о том, что развитие сотрудничества с работодателями и внедрение механизмов дуального образования способствует формированию профессиональных компетенций выпускников, повышению уровня занятости и обеспечению экономики квалифицированными кадрами.

**Ключевые слова:** рынок труда, дуальное образование, работодатель, профессиональное образование, занятость, компетенция, подготовка кадров.

**Annotation.** This article analyzes the importance of cooperation between educational institutions and employers in training personnel adaptable to labor market requirements. The theoretical foundations of dual education, its advantages, international experience, and prospects for expanding this system in Uzbekistan are discussed. The study concludes that effective employer cooperation and the development of dual education mechanisms contribute to the formation of professional competencies, increased employment rates, and the provision of qualified personnel for the economy.

**Key words:** labor market, dual education, employer, vocational education, employment, competence, workforce training.

### KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan mehnat bozorining malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish jarayonlari va iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi natijasida mehnat bozorida mutaxassislariga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada o'zgarimoqda. Shu sababli ta'lim tizimi oldida zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega, o'zgaruvchan sharoitlarga



tez moslasha oladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmog'unda [1; 2].

Jahon amaliyotida mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida ish beruvchilar bilan hamkorlik asosida tashkil etilgan dual ta'lim tizimi e'tirof etiladi [3]. Ushbu model ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash orqali bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va ilmiy manbalarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida dual ta'lim tizimining samaradorligi baholandi.

### **Mehnat bozori talablariga moslashuvchan kadrlar tayyorlashning nazariy asoslari**

Mehnat bozori iqtisodiyotning muhim instituti bo'lib, unda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif shakllanadi. Zamonaviy sharoitda ish beruvchilar tomonidan nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki amaliy tajriba, muammolarni hal qilish qobiliyati, kommunikativ kompetensiyalar va raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislariga talab ortib bormog'unda [4].

Kasbiy ta'lim tizimining asosiy vazifasi iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilarning faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega [5].

Mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'plab mamlakatlarda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmog'unda. Bunday sharoitda ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi [6].

### **Ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati**

Dual ta'lim kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarini nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki haqiqiy kasbiy muhitda bevosita tajriba bilan ta'minlaydi, bitiruvchilarga o'z sohalarida allaqachon ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan holda mehnat bozori talablariga yaxshiroq moslashishga imkon beradi. Dual ta'lim olgan texnikum o'quvchilarini nafaqat nazariy bilimlarga, balki darhol amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'ladi [7].

Dual ta'limda ishtirok etadigan o'quvchilar o'qish bosqichida ham kasbiy aloqalarni o'rnatish imkoniyatiga ega. Ikki tomonlama ta'lim olgan texnikum o'quvchilari o'qishni tugatgandan so'ng ishga joylashish imkoniyati ham yuqori bo'ladi. Ular allaqachon ish tajribasi va kasbiy mahoratga ega bo'lganligi sababli, ular ish beruvchilar uchun yanada jozibador bo'lib, bitiruvchilarning ishsizlik darajasini pasaytiradi. O'qish paytida ish tajribasiga ega bo'lgan o'quvchilar



ko'pincha o'zlarining kasbiy qiziqishlari va afzalliklarini yaxshiroq tushunishadi. Bu ularga o'z ko'nikmalari va sevimli mashg'ulotlariga mos keladigan martaba yo'lini tanlashga yordam beradi. Dual ta'lim iqtisodiyotni rivojlantiradi, chunki ushbu tizimda ishtirok etadigan korxonalar o'z ehtiyojlarini hisobga olgan holda malakali kadrlarni shakllantirishlari mumkin. Dual ta'limning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarni mehnat bozorining haqiqiy talablari va sharoitlariga tayyorlaydi. Talabalar nafaqat nazariyani o'rganish, balki haqiqiy tashkilotlar va korxonalarda ishlash orqali o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [8].



Bu ularga nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki aloqa, jamoada ishlash, Real vaqtda qaror qabul qilish va hokazolarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- o'quv rejalari va fan dasturlarini birgalikda ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish;
- korxonalar mutaxassislarini ta'lim jarayoniga jalb etish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlash;
- kasbiy standartlarni shakllantirish.

Ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv darajasini oshiradi hamda ularda amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi [9]. Korxonalarda tashkil etilgan amaliyotlar talabalarga real ishlab chiqarish muhiti bilan tanishish, kasbiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish va kelgusidagi ish faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi [10].



### **Dual ta'lim tizimining mohiyati va afzalliklari**

Dual ta'lim — bu ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligida tashkil etilib, nazariy ta'lim bilan amaliy faoliyatni birlashtiruvchi ta'lim modelidir. Talabalar o'quv jarayonining bir qismini ta'lim muassasasida, ikkinchi qismini esa korxonalarda amaliyot o'tash orqali egallaydilar. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, dual ta'lim tizimi “nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish orqali talabalarni mehnat bozoriga samarali tayyorlash imkonini beruvchi innovatsion ta'lim modeli” hisoblanadi [11]. Shuningdek, dual ta'limning asosiy mohiyati ta'lim jarayonini real ishlab chiqarish muhiti bilan bog'lash, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ish beruvchilar ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi [12].

Dual ta'limning asosiy afzalligi talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlash imkoniyatidir. Talabalar o'qish jarayonidayoq ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etib, kasbiy tajriba orttiradilar.

Yusupovanning ta'kidlashicha, dual ta'lim ta'lim sifati va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi [13].

Dual ta'lim tizimida talabalar korxonalarda faoliyat yuritish orqali zamonaviy ish muhiti bilan tanishadilar. Natijada ular bitirganidan so'ng ish joyiga moslashish uchun qo'shimcha vaqt talab etmaydi. Hamroev va Rahimovanning fikricha, dual ta'lim yosh mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi hamda ularning bandlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi [14].

Dual ta'lim tizimi bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Nazariya va amaliyotning uyg'unlashuvi natijasida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari yanada rivojlanadi. Tadqiqotlarda dual ta'lim modeli ta'lim natijalarining samaradorligini oshirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan [15]. Dual ta'lim tizimi zamonaviy ta'limning eng samarali modellaridan biri bo'lib, nazariy bilim va amaliy faoliyatning integratsiyasini ta'minlaydi. Ushbu tizim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish hamda ish beruvchilar ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli dual ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **XULOSA**

Mehnat bozori talablariga moslashuvchan kadrlar tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, dual ta'lim tizimini keng joriy etish va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish



muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim modeli bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning bandligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistonda dual ta'lim qamrovini kengaytirish, ish beruvchilar ishtirokini faollashtirish va ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining professional ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. UNESCO. Technical and Vocational Education and Training Strategy 2022–2029. – Paris: UNESCO, 2022.
4. International Labour Organization (ILO). Skills and Employability Report. – Geneva: ILO, 2023.
5. Euler D. Germany's Dual Vocational Training System: A Model for Other Countries? – Gütersloh: Bertelsmann Stiftung, 2019.
6. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023.
7. Nurmatova, Gulbaxor. "Dual ta'limning yoshlarga ta'siri." Бюллетень педагогов нового Узбекистана 1.12 (2023): 114-116.
8. Rahimovna, Baymurova Nigora. "Dual ta'limi asosida talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish." pedagog 6.12 (2023): 11-14.
9. Abdullayev A., Karimov Sh. Kasbiy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2022.
10. Xolbekov A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va dual ta'lim tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
11. Abdullayeva S., Yo'ldasheva M. Dual Education – Advantages and Problems // O'zMU Xabarlari. – 2024. – № 1. – B. 181–184.
12. Baymurova N.R. Integration of Theory and Practice in Dual Education // Shokh Library. – 2025. – № 8. – B. 45–49.
13. Yusupova S.X. Dual ta'lim bilan an'anaviy ta'limning o'zaro aloqadorligi // Analysis of Modern Science and Innovation. – 2026. – T. 5, № 2. – B. 112–116.
14. Hamroev G.H., Rahimova S.D. The Effectiveness of the Dual Education System // American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – Vol. 28. – P. 82–86.
15. Navruzova G.U. Implementation and Advantages of the Dual Education System in Uzbekistan // Modern Education and Development. – 2025. – Vol. 4, № 3. – P. 210–214.